

## BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARDA INGLIZ TILIDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY- PEDAGOGIK ZARURIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10786068>

**Shohida Buzrukova Murod qizi**

*Jizzakh State Pedagogical University*

### **Annotatsiya**

*Maqolada Ingliz tili darslarida muloqot, innovativ ta'lim, darslarda kommunikativ usullardan foydalanish haqida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar**

*Metodik va kommunikativ usul, ta'lim jarayonida muloqot maqsadi, ijtimoiy muloqot, bo'lajak o'qituvchi yondashuvi.*

### **Abstract**

*The article talks about communication in English language classes, innovative education, and use of communicative methods in classes.*

### **Key Words**

*Methodical and communicative method, purpose of communication in the educational process, social communication, future teacher's approach.*

### **Аннотация**

*В статье говорится о общении на уроках английского языка, инновационном образовании, использовании коммуникативных методов на занятиях.*

### **Ключевые Слова**

*Методико-коммуникативный метод цель общения в образовательном процессе, социальная коммуникация, подход будущего учителя.*

Muloqot ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil etuvchi omillardan biridir. Uning qanday mazmun, ohang, yo'nalish va uslubga egaligi shaxslararo ijtimoiy munosabatlarning natijasini belgilab beradi. Zero, muloqot asosida shaxslar o'rtasida tashkil etilayotgan munosabatlar yoki ijobiy yoki salbiy tus oladi. Shu sababli ta'lim muassasalarida o'sib kelayotgan yosh avlodning muloqot madaniyatiga ega bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Qolaversa, muloqotning samarali bo'lishi u qaysi tilda yoki tillar o'rtasida tashkil etilishidan qat'iy nazar muhim talab hisoblanadi.

Muloqot madaniyati, insonlar o'rtasidagi muloqot va aloqalarni tushunish, qo'llash, va rivojlantirishda eng muhim asosdir. Ingliz tilida muloqot madaniyati

o'qituvchilarga muloqotda qanday qilib ma'naviyat, adabiyot, va munosabatlarni tushunishga yordam beradi.

Muloqot madaniyati, har bir til o'rganuvchining ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishining asosiy belgisidir. Ingliz tili o'qituvchilari uchun esa bu ahamiyat aynan shunday zaruriy masala sifatida turadi, chunki ularning asosiy vazifalari o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish, shuningdek, ularni ingliz tilida muloqot qilish, ma'naviy va madaniy munosabatlarni o'rgatishga asoslanadi. Bunday ko'rsatkichlarni oshirish, jamiyatning kelajakda o'ziga yetishgan fuqarolarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Shaxslar o'rtasidagi muloqot nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Shu bois juda qadimdan jamiyatning ilg'or kishilari (mutafakkirlar, davlat arboblari, sarkardalar) muloqotni to'g'ri, samarali va oqilona tashkil etish masalasini o'rganishga alohida e'tibor qaratganlar. Bu e'tibor natijasida muloqotni samarali, to'g'ri tashkil etilishi borasidagi bilimlarni o'zida qamragan mustaqil fan shakllangan. "Nutq madaniyati" ("Notiqlik madaniyati", "Notiqlik asoslari", "Notiqlik san'ati" va h.k.) deb nom olgan ushbu fan negizida shaxslar, shu jumladan, talabalar muloqot jarayonida eng muhim vosita bo'lgan nutq, uning o'ziga xos xususiyatlari, muloqot turlari, muloqotni tashkil etishda hal qilinadigan vazifalar, muloqot (axborot almashish) vositalari va boshqalarga oid nazariy bilimlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Bugungi kunda nafaqat siyosiy, diplomatiya va boshqa kasbiy faoliyat sohaslarida, balki shaxslar o'rtasida tashkil etiladigan eng oddiy kundalik munosabatlar jarayonida ham muloqot hal qiluvchi rolni o'ynamoqda. Muloqot qanchalik to'g'ri, samarali tashkil etilsa, Jahon va respublika miqyosida ishlab chiqarish, biznes, ijod va hokazo sohalarda imzolanayotgan shartnomalarning asosini ham bevosita shaxslar o'rtasida tashkil etilgan samarali muloqot tashkil etadi.

Til - muloqotning eng muhim vositasi. Shu sababli muloqot jarayonida muayyan millat tiliga xos xususiyatlar bevosita aks etishi bilan birga shaxsning madaniy yondashuvi ham o'z ifodasini topadi.

Ingliz tili o'qituvchilari o'quvchilarga faqat grammatika va lug'atni o'rgatishda emas, balki ularga ta'lim berish va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantishlari ham zarur. Bu esa, ularni eng muhim bo'limlardan biri qiladi, chunki muloqot madaniyati, o'zgaruvchilar, maslahatchilar, va o'zaro munosabatlar uchun keng doiradagi umumiy mahoratni o'z ichiga oladi.

Muloqot madaniyatining ustuvor tamoyillari quyidagilardan iborat: nutqning to'g'riligi (grammatik, sintaksis, morfologik nuqtai nazardan to'g'ri tuzilishi);

nutqning sofligi (sheva, “yovvoyi”, parazit soʻz va iboralardan holi boʻlishi); nutqning aniqligi (fikrni aniq, loʻnda bayon qilinishi); nutqning mantiqiyliigi (gapning mantiqiy izchillikka ega boʻlishi, fikrlarning bir-birini oʻzaro toʻldirib kelishi); nutqning ifodaviyligi (jonli, ifodaviy, maʼnodor boʻlishi); nutqning boyligi (maqol, matal, hikmatli soʻzlar, xalqona iboralar bilan boyitilganligi); nutqning oʻrinli boʻlishi (nutqning mavjud vaziyat hamda shaxslarning ruhiy holatiga mos, muvofiq boʻlishi. Shu bilan birga, bizning fikrimizga koʻra, nutqning mavjud ijtimoiy-axloqiy meʼyorlarga asoslanishi (nutqiy aloqada ijtimoiy talablar, odob, axloq qoidalariga rioya etish)ga alohida eʼtibor berish lozim.<sup>18</sup>

Ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyati – ikki yoki undan ortiq shaxslar oʻrtasida ingliz tilida tegishli til qoidalariga muvofiq bevosita uchrashib yoki axborot-kommunikasiya vositalar (maktub, uy telefoni, mobil telefon, kompyuter – Internet tarmogʻi) yordamida bilvosita tashkil etiladigan suhbatni samarali, muvaffaqiyatli uyushtira olish qobiliyatiga egalik qilish tushunchasi ifodalaydi.

Talabalarda ingliz tiliga asoslangan muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun, eng avvalo, quyidagi pedagogik shartlarga eʼtibor qaratish zarur: talabalarda tafakkurni rivojlantirish (bunda talabalarga ingliz tilida savollar bilan murojaat qilish, muammoli topshiriqlarni berish orqali ularni fikrlashga yoʻnaltirish (majbur qilish); ularni oʻz ongida aks etayotgan obʼektiv borliq mohiyatini tushunishga oʻrgatish (bunda muhim bogʻlanish va aloqalarni chuqur idrok etgan holda oʻz ongida aks etgan obʼektiv borliqqa oid oʻy-fikrlar, qarashlar, orzu- intilishlarni ingliz tilidagi nutq (til) yordamida bayon etish (yozma yoki ogʻzaki shaklda).

Ijtimoiy-pedagogik jarayonlarda ingliz tilida muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun quyidagi maslahatlar qoʻllanilishi mumkin:

Amaliy koʻrsatkichlar va misollar: Mavzuni oʻrganishda va muloqot ustida ishlovchi amaliy koʻrsatkichlar va misollar taqdim etish, oʻquvchilarning oʻzlarini ingliz tilida ifodalash va muloqot qilishga qodirliklarini rivojlantirishga yordam beradi.

Muloqotni mustaqil qoʻllash: Oʻquvchilarga muloqotda boʻlish uchun fursatlar taqdim etish. Bu, oʻquvchilarning oʻzlarini mustaqil ravishda ingliz tilida ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi va ularning ishtirok etishini ragʻbatlantiradi.

<sup>18</sup> Langacker R. Concept, image and symbol. The cognitive basis of grammar. Berlin N.Y.: Mouton de Gruyter, 1991.

O'zlashtirilgan o'qitish usullari: O'quvchilarning turli mavzular bo'yicha muloqotlarini o'rganish uchun o'zlashtirilgan o'qitish usullarini qo'llash. Bu, o'quvchilarni muloqot va ingliz tilida fikr biriktirishda qo'llanishga rag'batlantiradi.

Mavzularni shaxsiy hayotga bog'lash: Mavzularni o'quvchilar shaxsiy hayotiga bog'lash, ularning mavzularni shaxsiy tajribalari va qiziqishlariga asoslangan holda o'rganishini rag'batlantiradi.

Interaktiv darslar va muloqotlar: O'quvchilarning o'zaro muloqotlarini rivojlantirish uchun interaktiv darslar va muloqotlar tashkil etish. Bu, ularning boshqa o'quvchilar bilan muloqot qilish, savollarga javob bermish va fikr almashishlarini rag'batlantiradi.

Muloqotda kutilgan natijaga erisha olish uchun o'zga millat vakillari ingliz tilida tanish va notanish shaxslarga murojaat qilish, salomlashish, xayrlashish, tashakkur bildirish, kechirim so'rash, tabriklash va boshqalarga doir nutqiy qoida, talablardan yetarlicha xabardor bo'lishi zarur. Masalan, ingliz tilida murojaatning sen va siz shakllarini qo'llashga nisbatan rasman e'tirof etilgan aniq chegara mavjud emas. Murojaatning har ikki (sen va siz) shakllari birgina you olmoshi bilan ifodalanadi. You (mohiyatiga ko'ra rus va o'zbek tilidagi sen) olmoshi XVII asrdayoq til iste'molidan chiqib ketgan bo'lib, ayni vaqtda faqatgina poeziya hamda "Injil" dagina qo'llaniladi. You olmoshi barcha - rasmiy va norasmiy muloqotda ham ifodaviylik, tegishli so'z va iboralarning tanlanganligi, qurilishi asosida ifodalanadi.

Shaxslararo muloqotda amal qilinadigan odob-axloq qoidalari (etiket) nutq mohiyatidan kelib chiqqan holda, birinchidan, nutqiy xushmuomalalilikni ta'minlaydi, ikkinchidan, nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Shu sababli talabalarni ingliz tilida muloqot qilishga o'rgatishda nutqni nafaqat grammatik, sintaksis va morfologik xususiyatlarga ko'ra to'g'ri, aniq va tushunarli ifodalashga, shu bilan birga xushmuomala, yoqimli bo'lishini ta'minlashga ham o'rgata olish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga barcha tillarda bo'lgani kabi ingliz tiliga asoslangan muloqotda ham suhbatdoshga uning ismini aytib murojaat qilish dialogdan kutilgan natijani qo'lga kiritish imkoniyatini yaratadi. Demak, ingliz tilidagi muloqotning eng xarakterli jihati - xushmuomalalilik va vaqti- vaqti bilan suhbatdoshning shaxsini e'tirof etish sanaladi. Quyida vaqtni aniqlab olishga bo'lgan istakning atrof dagilarga murojaat qilingan holda qondirilishiga oid misollar negizida dialog jarayonida yuqorida qayd etilgan talablarning inobatga olinishi xususida so'z yuritiladi.

Umuman olganda, muloqot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati, o'qituvchilar uchun muloqot qilishga, ijtimoiy taraqqiyot va

o'rganishni rag'batlantirishga oid muhim maqsadlarni talab qiladi. Bu esa o'qituvchilar uchun xizmat ko'rsatishni yanada samarali va o'quvchilar uchun o'rganishni oson qiladi.

Pedagogik yondashuv sifatida o'qituvchilar ingliz tilida muloqotni rivojlantirish uchun amaliy pedagogik strategiyalarni o'rganishlari kerak bo'ladi. Masalan, muloqotda ishtirok etishni tezlashtirish, talabalar orasida muloqotni o'rganishni rag'batlantirish uchun o'qituvchilar "pair work" va "group discussions" kabi metodlardan foydalanishlari zarur.

Ingliz tilida muloqotni tashkil etishda ham yuqorida qayd etilgan pedagogik shartlarga rioya qilinishi uning samarali kechishini ta'minlash bilan birga shaxs (ishtirokchi)lar o'rtasida o'zaro ijobiy ta'sirlanish ro'y berishini kafolatlaydi. O'zaro ijobiy ta'sirlanish esa har qanday muloqotni tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj asosi hisoblanadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida talabalar imkon qadar har qanday muloqotning shaxslar o'rtasidagi ijobiy ta'sirlanishni ta'minlay olishiga oid qoidalar bilan tanishtirilib borilishlari zarur. Bunda talabalar muloqotning ijobiy xarakter kasb etishida muhim bo'lgan xushmuomalalilik, samimiylik, ifodaviylik kabi shartlardan xabardor bo'lishlariga e'tibor qaratiladi.<sup>19</sup>

#### ADABIYOTLAR:

- 1) Langacker R. Concept, image and symbol. The cognitive basis of grammar. Berlin N.Y.: Mouton de Gruyter, 1991.
- 2) Махкамова Г. Концепция формирования межкультурной компетенции студентов факультетов английского языка. - Ташкент: Фан, 2010.
- 3) Jonnson-Laird Ph.N. Mental Models: Towards a Cognitive Science of Language, Inference and Consciousness. Cambridge.: CUP, 1983.
- 4) Primkulovna, Allayorova Shaxnoza. "INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MASHHUR OMMAVIY AXBOROT VAKILLARI, SIYOSATCHILAR VA ULARNING PERIFRAZADAGI ISMLARI." *PEDAGOG* 6.12 (2023): 206-210.
- 5) Primkulovna, Allayorova Shaxnoza. "PERIPHRASES UNIT OF THE NAMES OF THE REPRESENTORS OF LITERATURE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGE." *JOURNAL OF LANGUAGE AND LINGUISTICS* 6.5 (2023): 100-104.

<sup>19</sup> Langacker R. Concept, image and symbol. The cognitive basis of grammar. Berlin N.Y.: Mouton de Gruyter, 1991.

6) Shohida, Buzrukova. (2023). INGLIZ TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA KOMMUNIKATIV METODOLOGIYANING AHAMIYATI. JOURNAL OF LANGUAGE AND LINGUISTICS, 6(5), 95-99.

7) Buzrukova, S. (2022). Shohida BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA IJTIMOY KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH: BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA IJTIMOY KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(4).

8) Jonnson-Laird Ph.N. Mental Models: Towards a Cognitive Science of Language, Inference and Consciousness. Cambridge.: CUP, 1983.